



I (57)-son
2018-yil, yanvar

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'nnaviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

"Vaqt o'tgani sari hamma narsa unut bo'ladi", — degan fikr bor. Lekin insoniyat tarixida shunday shaxslar bo'ladiki, ularning tabarruk nomi har bir davr, har bir avlod bilan yangilanadi. Chunki bunday shaxslarning hayoti, faoliyati, hatto, aytib, yozib qoldirgan so'zlarida ham qaysidir zamongagina emas, abadiyatga daxldor ibratlar bo'ladi.



"BIZ SIZ AYTGAN DAY KUCHLI, BILIMLI, DONO VA ALBATTA, BAXTLI BO'LAMIZ"

Shuning uchun ham oradan olti – yetti asr o'tganiga qaramay Sohibqiron Amir Temuring "Millatning dardiga darmon bo'lingiz", hazrat Alisher Navoiyning:

*"Odami ersang, demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami"* —

kabi hikmatlarini xuddi kecha aytigaln gaplardek qadr lab eslaimyz.

Mustaqilligimiz me'mori Islom Abdug'aniyevich Karimov ham ana shunday buyuk shaxslardan biri sifatida O'zbekiston tarixi sahifalarida yorqin siymo bo'lib qoldi.

Birinchi Prezidentimizning asarlarini varaqlar ekansiz, ularning barchasida yoshlarga e'tibor masalasi birlamchi vazifa ekanligini teran anglaysiz, Vatan muhabbatini qalban his qilasiz.

"Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir" kitobida Islom Karimov iqtidorli, bilimli, yuksak marralarni zabit etayotgan yoshlarni ko'rganlarida "...bamisli qaddim ancha o'sgandek tuyildi. Kerak bo'lsa, devor yoniga borib, qanchalik o'sganimni o'chab ko'rishga ham tayyorman", — degan edi.

Ma'no-mazmuni, insonga beradigan shiddat-shijoatidan, ruhiy quvvatidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu so'zlarni shunchaki o'qib ketolmaysiz. Bu g'urur, bu iftixon yuraginzning tub-tubigacha yetib boradi, siz-u bizni yuksak zafarlar, baland-baland marralarni zabit etishga undaydi.

Xalqimizning tafakkur xazinasini boyitishga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan bu kitob mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini izchil davom etirish, aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish borasida oldimizda turgan vazifalarni aniq-ravshan belgilab berishi bilan barchamiz uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Allomalarimiz "Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim", — deya nasihat qiladilar. Inson o'z tafakkuri yordamida ta'lim-tarbiya olishi, odob-axloq normalarini egallashi, o'zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos ma'nnaviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtirishi lozimligini taqozo etadi.

Unda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi so'zları aynan ish-

latilmasa-da, ularning burch va vazifalari aks etgan. Islom Karimovning 1993-yil chop etilgan "Buyuk kelajagimizning haqiqiy kafolati" asarida shunday yozadi: "Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyoсидан bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak." Bu yerda tarbiyachining o'zi hamisha o'rnak bo'lishi zarur degan fikrleri ilgari surilgan. Bu – biz uchun hayotiy tajriba asosi.

O'zbekistonning ham bugungidek barqaror rivojlanayotgan, dunyoning hayrat va havasini keltirayotgan mamlakat sifatida nom qozonishi o'z-o'zidan bo'lmagan.

Islom Karimovning "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz" nomli kitobini o'qir ekanmiz, shu vatan farzandimiz degan navqiron avlod qalbiga quvvat, mador beradi. Yuragining tub-tubida Istiqlolga shukronalik tuyg'ulari junbushga keladi, vatanning bir kuniga yaray degan ahd una tinchlik bermaydi.

Birinchi Prezidentimizning "Istiqlol va ma'nnaviyat", "Ma'nnaviy yuksalish yo'lida", "Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor-ma'nnaviyatga, kelajakka e'tibor" nomli asarlarida adabiyotga doir qarashlari badiiy so'z san'atining millat, jamiyat, vatan manfaatlari bilan bog'liqligi belgilab berilgan konseptual yo'nalishlar, yo'riqlar, nazariy g'oyalar abiyotshunosligimiz uchun metodologik asos vazifasini o'tashi aniq.

Darhaqiqat, inson uchun ma'nnaviy ne'matdan yuksakroq boylik bo'lmasa kerak. Ong-u shuurida ma'nnaviy bo'shliq bo'lmagan insonni hech qanday kuchlar yenga olmaydi. Bu boroda esa Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'nnaviyat-yengilmas kuch" asari haqiqiy ma'noda "ma'nnaviy quvvat makoni", nazarmida. Bundan bir necha yillarda muqaddam topilgan qadimiy obidalarning biridan "yoshlarni qalbini asrang" degan bitik haqida bir manbada o'qib qoldim. Ayni damda ham bu bitik o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan. Ushbu da'vat bugungi globallashuv zamonida, internet orqali kirib kelayotgan ma'nnaviy tahdidlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida milliyligimizga, qadriyatlarimizga dahl

farzandi Muhammadqodir Mirzaliyev hamda serjant Mahmudjon Omonovning turmush o'rtog'i, o'qituvchi, Toshkent viloyati Angren tumanida yashovchi Muhabbat Omonova, farzandlari Asrbek va Irodaxonlar holidan ham xabar olindi. Quvonarli, ular bugun yurtimizda istiqomat qilayotgan baxtiyor va bekam-u ko'st oilalar qatoriga kirishadi. Shuningdek, oila vakillari o'zlarining halol kasblari, harbiy sohasidagi fidokorona mehnatlari hamda jonkuyarlklari bilan jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shishmoqda.

Marhum harbiylarning farzandlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga mehr qo'yanligi keyinchalik, esa mazkur maskanda tahsil olish istagini bildirishdi va bu yuray qovontirdi.

Ayyom munosabati bilan bo'lgan tashrifdan barchanining dili cheksiz quvonchga to'ldi. Institut jamoasingning ham zimmasidagi vazifani ado etganligi tufayli ezgulik yo'lida safarbar etayotganliklari quvonarli, albatta. Biz esa mana shunday ko'ngilni tog'dek ko'taruvchi, saxovatpeshalikka eltvchi ishlar yanada ko'payib borishini istaymiz. Zero, bu dunyoda inson ortidan faqatgina yaxshi nom va beminnat ezgu amallar hosilasi qolajak.

Suhbat, mehmondo'stlik bir umr ko'ngilda saqlanuvchi yorqin xotiralarni tuhfa etdi. Nasib qilsa, bunday ezgu amallar keyinchalik ham davom etaveradi. O'yaylimizki, mazkur tashriflar vafot etgan faxriyalarimizning ruhlarini ham shod aylaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy qatlama moddiy-ma'nnaviy yordam berish yurtimizda siyosat darajasidagi ustuvor vazifadir. Mazkur xizmatlarning boshida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning fidoyi mehnatlari yotganligi, barchamizni bir maqsad yo'lida birlashishga safarbar etayotganliklari quvonarli, albatta. Biz esa mana shunday ko'ngilni tog'dek ko'taruvchi, saxovatpeshalikka eltvchi ishlar yanada ko'payib borishini istaymiz. Zero, bu dunyoda inson ortidan faqatgina yaxshi nom va beminnat ezgu amallar hosilasi qolajak.

Dostonbek RAHMATULLAYEV,
"San'at nazariyasi va tarixi
(kinoshunos)" mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

EZGU AMALLAR

Saxovatpeshalik, o'zgalarga yaxshilik qilib yashash hamda muhtojlarga ko'mak berish kabi ezgu insoniy fazilatlar muqaddasdir. Asriy an'analarimiz, umrboqiy qadriyatlar mohiyati, muqaddas dinimiz zamirida ham aynan ezgu ishlar qilish orqali timimsiz o'tayotgan umr mazmunini boyitish, o'zgalarga yaxshilik qilish vazifalari yotadi. Mana shunday qutlug' maqsadlarga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasining ham hissasi qo'shilayotganligi quvonarli holdir.

Yurtimizda o'tkaziladigan faxrlar bayramlardan biri 14-yanvar "Vatan himoya-chilar kuni" shukuhi hali hamon qalblarimizni tark etganicha yo'q. Kuni kecha institut jamoasi Vatan xizmati yo'lida fido bo'lgan ikki nafar harbiy Boburjon Mirzaliyev hamda Mahmudjon Omonovlarning oilalariga chin dildan ko'mak berishdi. Qutlug' ayyom munosabati bilan mazkur oilalarning holida xabar olindi. Harbiylarning beminnat xizmati, fidokorona mehnati bugungi tinch va osoyishta kunlarimizning posbonlari bo'lishdek mas'uliyatl vazifani sidqidildan

ado etishlari mardonavor xizmatlarining aksi bo'lib, bugun yosh avlod tarbiyasida ham mana shu fazilatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vafot etgan harbiylarning fidokorona xizmati doim o'zgalarga ibrat bo'la oladi.

Institutning Ma'nnaviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektori D.Mulladjanov hamda o'qituvchilar boshchiligidagi Oly burch vazifasi yo'lida qurbon bo'lgan leytenant Boburjon Mirzaliyevning turmush o'rtog'i Toshkent Oly umumqo'shin qo'mondonligi bilim yurti serjanti Dilshoda Otaxonova,

2018-yil 21-yanvar kuni Turkiston san'at saroyida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar kengashi tashabbusi bilan «Yaxshiliklar ittifoqida» deb nomlangan yangi loyiha start oldi. Ushbu loyiha konsert dasturida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Xoreografiya va milliy raqs oliy maktabi, Respublika yoshlar teatri jamoasi hamda G.V.Plexanov nomidagi Moskva universitetining Toshkent filiali talabalari ishtirok etishdi.

“YAXSHILIKLAR ITTIFOQI”NING YAXSHILIKLARI

Loyiha yoshlarimiz orasida mehrga muhtoj, imkoniyati cheklangan turli ijtimoiy qatlama vakillarini katta sahnaga olib chiqishni maqsad qilgan.

Loyihada so'z olgan Toshkent shahar Yoshlar ittifoqi kengashi raisi Elbek Shukurov sahnalashtiruvchi rejissyor institutimizning “Estrada va ommaviy tomoshalar” kafedrasi katta o'qituvchisi Ilhom Sodiqovga hamda ijodiy guruhgaga o'z minnatdorchiligini bildirib, yana bir muhim yangilikni e'lon qildi. Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev tomonidan iqtidorli yoshlar uchun alohida muhtasham san'at saroyi bunyod etilayotgani va u yerda besh yuz kishilik

tomosha zali qurilishi aytib o'tildi. Eng muhim tomosha zalida iste'dodli yoshlar o'z chiqishlarini tengqurlariga havola etishlari mumkin.

Kechada institutimizning kamer orkestri hamda orkestr badiiy rahbari va dirijori Hikmat Rajabov, Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist Rudakiy Allamboyev, doirachilar guruhi, “Ashula va raqs” ta'lim yo'nalishi talabalari jonli ijroda o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

Dasturni “Sahna nutqi” kafedrasi katta o'qituvchisi Bahodir Magdiyev va Xalq ijodiyoti fakulteti, “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”



yo'nalishi 3-bosqich talabasi Sabina Berdiyevalar olib borishdi.

O'ylaymizki, “Yaxshiliklar ittifoqi” konsert loyihasi jamiki yoshlarga yaxshiliklar ato etibgina qolmay balki ularning iste'dodini yanada shakllantirish yo'lida xizmat qiladi.

Sabina BERDIYEVA,
Xalq ijodiyoti fakulteti, “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” yo'nalishi 3-bosqich talabasi

KITOB MUTOLAASINI QANDAY SHAKLLANTIRISH KERAK?

“*G'olib el asl tolib bo'ladi,
kitobxon xalq g'olib
bo'ladi.*”

dan juda og'ir hayot kechirsa-da, kirxonalarda 22 soat tinim bilmay ishlasa-da, ijodni chetga surib qo'ymaydi. She'rlar, ocherk, qissalar yozadi. Tahririylarga beradi, ammo birortasi ham bosilmaydi. Ruf ismli qizga ko'ngil qo'yadi, ammo uni ham mehrini qozonolmaydi. Chunki Ruf xohlaganday sharoit unda yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, Martin irodasini sindirdi, kurashishdan tolmadı. Birdan omadi kelib, uning asarlar gazetalarning har sonida chiqadigan bo'ldi, hatto yangi asarlar yozib berishini iltimos qiladigan bo'ldilar. Katta-katta gonorarlar oldi, boyib ketdi, Rufga ham yetishdi. Lekin u xohlagan jamiyat muhiti unga umuman yoqmadı. U hamma narsaga erishgandi, unga hech narsani qizig'i qolmadı. Nati-jada dengizga g'arq bo'lib, o'zini o'zi qurban qildi. O'qib bo'lgunimcha qahramonimiz Martin uchun pul ishlab topgim keldi, u qiyalsal qiyaldim, boshi og'risa dori ichdim. Puli yo'qligida muhabbatini nazariqa ilmay, boyib ketgach orqasidan borgan Ruf singari qizlar ham bugunning eng og'riqli nuqtasi, aslida. Bu asarni o'qib sabrli bo'lishga o'rgandim, irodamni tobladim. Hamma ham kitob o'qishini, badiiy asarlardan tarbiya olishini istardim.

O'qilmagan kitoblar – Zahiriddin Muhammad Boburning tushlari...

O'qilmagan kitoblar – Sohibqiron Amir Temurning yurishlari...

O'qilmagan kitoblar – tafakkuring g'ishtlari...

Oylar o'tadi, oy botadi. Aylanadi oftoblar ham. Illohim, silzhami ham o'qilmagan kitoblar yodi tunda uyg'otsin!

**Zebo XUDOYBERDIYEVA,
Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti,
San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyası) yo'nalishi 3-bosqich talabasi**



МАҚОМ МАКТАБИ ТАШКИЛ ТОПДИ



Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 17 ноябрда “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳалқимиз маданий меросининг ажралмас қисми бўлган миллий мақом санъатининг ривожланишига кенг ўйл очиб берди.

Ушбу қарор ижросини таъминлаш мақсадида, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият инститutinинг Фарона минтақавий филиали қошида “Мақом макtabi” ҳамда “Асия макtabi” ташкил этилди. Жамоатчилик асосида ташкил этилган макtabga санъатга қизиқувчи ёшлар ҳам жалб этилди. 2018 йил 11 январь куни ушбу макtablarda ilmий-amalij anjuman bўlib utdi.

Ўзбекистон ҳалқ артисти Шафоат Раҳматуллаева “Мақом макtabi”га, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Жўрахон Пўлатов эса “Асия макtabi” га бадиий раҳбар бўлишиди.

Қўқон мусиқали драма театри, Шерали Раҳмонов, Тошпўлат Акбаровлар раҳбарлигидаги мусиқачилар ва хонандалар ҳам бажонудил қатнашишга аҳд килганликларини билдирилар.

Илмий-amalij семинарда Қўқон мусиқали драма театри жамоаси, Қўқон давлат педагогика инститuti, “Ёшлар иттифоки” театр студияси аъзолари, филиал жамоаси ва талabalari ҳамда миллий makomchilik san'atiga kiziqcadigian 20 dan ortik uyuşmagan ёшlar iştirok etdilari. Seminarda Ўзбекистон ҳалқ arтиsti Sultonali Mannopov, xonandalardan Sherali Rahmonov, Toшpўlat Akbarov, Odina Begmatova, Nilufar Usmonova, filial talabalari va uyuşmagan ёшlar vakkillarining makomchilik yўnaliishi dagi iżrolari tinglanchadi. Askiyalilar Mansurjon Okulov, Foziljon Mullaev, Jamolxon Matovlarning chiqishlari қatnaşchilariga kўtarinki ruh bafişladi.

Ижроčilararga Ш.Raҳmatullaeva ҳамда Ж.Пўлатovlar ўз tavsiya va kўrscatmalari berdilari.

Ўзбекистон давлат санъат ва mаданияt инstitutin Fарона mintaқaviy filiali қoшиda tashkil etilgan “Maқom maktabi” ҳamda “Asiya maktabi” ҳaftanining xar sesanba va pайшанба kунлари соат 15⁰⁰ dan ўz машғulotlarini davom ettiradi.

**Икromjon XABIBJONOV,
Fарона минтақавий филиали АРМ директори**

Madaniyat va san'at terminlari lug'ati

Syomka — [r. snyat-, kino-, foto-, teletasvir tayyorlamoq, tasvirga (suratga) "olmoq" fl.dan yasalgan ot] suratga olish (mas., kinostudiya).

Syujet — [fr. Sujet, lot. subjectum — predmet, mazmun, mohiyat, narsal], 1. Badiiy asarda, filmda voqe-a-hodisalar tasviri bayonidagi izchillik va o'zaro aloqa; badiiy asar mazmuni

Syuita — [fr. Suite-qator, izchillik] umumiyl badiiy mazmun, g'oya, dastur ostida birlashtirilgan, ketma-ket keluvchi bir necha (odatda kontras) mustaqil qismlardan tashkil topgan musiqa asari.

Rejissura — «rejissyor» s.dan] 1. Rejissyorlik ishi, faoliyati. 2. Film, spektakl va sh.k.ning biror rejissyor tomonidan tayyorlangan postanovkasi.

Rejissyorlik — sahna yoki kino asarlarini sahnalaştirish bilan shug'ullanish; rejissyor kasbi, vazifasi.

Rejissyor — [fr. Regisseur- boshqaruvchi, rego- boshqaraman] sahna yoki kino asarini sahnalaştiruvchi badiiy rahbar, asarni tayyorlash, sahnaga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy ishlarning tashkilotchisi, boshlig'i.

Radiostudiya — [radio+studiya] Radioeshittirish uchun maxsus jihozlangan bino.

Radiospektakl — [radio+spetakl] radio orqali eshittirishga moslashtirilgan shu maqsadda yozib olingan spektakl.

Radio- [lot. Radiare] nur chiqarmoq, tarqatmoq.

1. Signal, ovoz kabi axborotlarni ma'lum masofaga elektromagnit to'lqinlar yordamida simsiz uzatish va qabul qilish usuli. 2. Fan texnikaning ushbu usuli asosidagi fizik hodisalarini o'rganish, bu usuldan turli sohalarda keng foydalanish bilan bog'liq soha.
3. Ommaviy axborot vositalaridan biri — matnni va musiqiy dasturlarni eshittirish; radio eshittirish. 4. Radiopryomnik, reproduktor.

Madaniyat — [madaniyat-tsivilizatsiya]. 1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'liga kiritgan yutuqlari majmui. 2. Biror ijtimoiy guruh, sind yoki xalqning ma'lum davrda qo'liga kiritgan shunday yutuqlari darajasi. 3. O'qimshilik, ta'lif-tarbiya ko'rganlik, ziyo'lilik, ma'rifat. 4. Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit.

Madaniyatli — madaniyatga erishgan, madaniyatni egallagan; ma'rifatlari.

Madaniyatsiz — madaniyatni yo'q, madaniyatdan orqada qolgan; ma'rifsatziz.

San'atkor — san'at bilan shug'ullanuvchi, ma'lum bir san'at egasi, hunarmand. 1. San'at sohibi, san'atning biror sohasini egallagan ijodkor; san'atchi. 2. Yuksak mahoratga ega bo'lgan; yaratuvchi.

San'atshunos — [san'at+f. o'rganuvchi] san'atshunoslik mutaxassisi.

VATAN

Yerda yotgan xazon yaproq singari,
Oyog'ing ostida uchib yuraman.
Netay sendan uzoq ketganim sari,
Hatto tushimda ham cho'chib turaman.

Oy chiqsa osmonga, quyosh chiqmas hech,
Yulduzni qulochlab ko'rgan odam yo'q.
Hattoki bir qarich suygan yeridan,
Bug'doy sepib arpa o'rgan odam yo'q.

Xato qilishni ham o'rganib oldim,
Yomon bo'sham qachon yaxshi bo'laman.
Tuyani ot deya baloga qolib,
Mushukni it bilib yurgan bolaman.

O'zimcha hech kimni ko'zga ilmayman,
Lek ko'zim yig'laydi qaydan olib nam
Siz bilsangiz aytin, men-ku bilmayman,
Kimni dildan yaxshi ko'rishimni ham.

Dil muzlab qolgani ekan-da yomon,
Isirdi mayliga har qanday xona.
Men shoshsam o'zga bir yaqinim tomon,
Kutarsiz haliyam yo'limni, ona.

Rustam ABDIYEV,
Xalq ijodiyoti fakulteti, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish"
yo'naliishi 1-bosqich talabasi

TENGDOSHIM

Tengdoshim, hayotga bir bor kelasan,
Ezgulikka to'ldir aziz umringni.
Yaxshilar ko'p emas, buni bilasan,
G'amlarda qoldirma nozik ko'nglingni.

Yasha, barcha senga kulib qarasin,
Sening hayotingga qilsinlar havas.
Do'stlarining koringga har dam yarasin,
Sen-la birdam bo'lsin, sen-la hamnafas.

Otangni ranjitma, duosini ol,
Onangning poyiga to'sha jannatni.
Yomonlar diliqa ezguliklar sol,
Raqibga tik qara topib jur'atni.

Hayotni sev! Yasha xotirjam,
Bardoshing toshdan-da mustahkam bo'lsin.
Hech qachon ko'zingda ko'rinsin nam,
Barcha baxt, quvonchlar senda jam bo'lsin.

Yaxshi tilaklarim hamrohing bo'lsin,
El-u yurtingni ham rozi qil doim.
Hayotning yaxshilik nuriga to'lsin,
Seni avaylasin qodir Xudoyim...

Orzugul MUZROBOVA,
Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti,
San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi)
yo'naliishi 1-bosqich talabasi

O'ZBEK QIZLARI

O'zbek qizi, o'zlikni siz yo'qotmangiz,
O'zbekona urfingizga o'q otmangiz.
Zamona deb turli libos kiyibsizlar,
Atlasni ham minni yubka qilibsizlar.

Taqid qilsang yevropacha moda deydi,
Havas qilmang, Yevropasi o'z yo'liga.
Biz o'zbekmiz, unutmangiz aslo buni,
Uloqtiring modasini o'z qo'liga.

Siz o'zbekning or nomusi - Zuhrolari,
Nodira-yu Kumushdayin tanholari.
Hayo qiling alarga mos ibolisiz,
Axir sizlar o'zbegimning ayolisiz.

Yarim ochiq liboslarning yengi bormi?
Bir qarichli yubkalarning kengi bormi?
Uzun ko'yak, do'ppilarining tengi bormi?
Kimligingiz unutmangiz aslo sizlar,
O'zligingiz yo'qotmangiz

O'ZBEK QIZLAR!

Jamoliddin CHAQQONOV,
San'at nazariyasi va tarixi (kinoshunos) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

«Achchiq danak»

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi, "Ta'lif to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi va "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining tegishli buyruqlari, O'zDSMIning Ustavi, ichki tartib qoidalari hamda umume'tirof etilgan ma'naviy va axloqiy tamoyillar asosida institutning ichki odob-axloq qoidalari nizomi ishlab chiqilganligi barchaga ma'lum.

Nizomning mazmun-mohiyati institutda ta'lif olayotgan talaba-yoshlarning tartibili kiyinish me'yorlarini belgilash, sog'lom muhit barqarorligini ta'minlash hamda ularni milliy qadriyat ruhidar tarbiyalashga qaratilgan. Lekin ayrim talabalarimiz ushbu qoidalarni to'liq anglab yetmaganligi sababli kiyinish odobiga rioya qilmaslik, dars soatlarini mutazam qoldirish kabi illatlar yuzaga qalqib chiqmoqda. Bu muammolarga barham berish maqsadida institut ichki qoidalari amal qilmagan ayrim talabalarining ismlarini yozishga jazm qildik.

1. Iskandarov Sardor Muxtor o'g'li, Rejissyorlik (televidenie va radio rejissyorligi) yo'naliishi 3-bosqich (rus guruhi) talabasi;
2. Qahharov Furqat Farxod o'g'li, Rejissyorlik (televidenie va radio rejissyorligi) yo'naliishi 3-bosqich (o'zbek guruhi) talabasi;
3. Abzalov Samandar Sardor o'g'li, San'atshunoslik (teatrshunoslik) yo'naliishi 4-bosqich (rus guruhi) talabasi;
4. Xolmamatova Asalxon Valixon qizi, Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) ta'lif yo'naliishi 3-bosqich talabasi;
5. Azimov Mirxodi Mo'min o'g'li, Kasb ta'limi "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" yo'naliishi 1-bosqich talabasi;
6. Bayanov Hamroz Baxtiyor o'g'li, Kasb ta'limi "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" yo'naliishi 4-bosqich talabasi.

Bu ro'yxatimizni davom ettirishimiz mumkin. Institutimizda tahsil olayotgan boshqa talabalarimiz o'zlarini uchun xulosa chiqarib oladilar, degan umiddamiz.

Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi

DIQQAT! DIQQAT! DIQQAT! TANLOV

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 80-yilligiga bag'ishlab "Istiqlol me'mori" nomli tanlovini e'lon qilamiz.

Tanlov quyidagi 6 ta

- Eng yaxshi maqola
- Eng yaxshi she'r
- Eng yaxshi qo'shiq
- Eng yaxshi videorolik
- Eng yaxshi ssenariy
- Eng yaxshi sahna ko'rinishi nominatsiyasi bo'yicha o'tkaziladi.

Ijodiy ishlarda Birinchi Prezidentimizning istiqlol yillarda yurtimizda amalga oshirgan keng ko'lamli islohotlari, madaniyat va san'at sohasiga qo'shgan ulkan hissasi aks ettirilishi lozim.

Ijodiy ishlardan joriy yilning 20-martiga qadar (+99893) 384-88-35, (+99899) 896-88-35 raqamlarida telegramm tarmog'i orqali qabul qilinadi. G'oliblar "Yoshlar ijodiyot festivali" kuni tantanali ravishda taqdirlanadi. Eng sara ijodiy ishlardan kitob holida nashr ettiriladi.

Mas'ul: Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish yo'naliishi 3-bosqich talabasi Bobur Ubaydullayev.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hay'ati:

Go'zel XOLIQULOVA
Hamadan ISMOILOV

Antonina KOSHELEVA

Rashid USNATOV

Mas'ul kotib:

Kurshida FAYZULLAYEVA

Muxbirlar klubu sardorlari:

Muharram BOZOIROVA

Shavkat DO'STMUHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Tel.: +99890 374-24-25; +99871 230-28-13
www.dsni.uz; dsni_info@olam.uz

Gazeta har oyning ohirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz -1.

Sahifalovchi:

Dilmurod DO'STBEKOV

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'chami - A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi - 1300 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishga 29.01.2018 yilda topshirildi.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

O'chami - A3, hajmi 2 bosma taboq.

Nusxasi - 1300 dona. Narxi kelishilgan narxda.

Chop etishga 29.01.2018 yilda topshirildi.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.

O'chami - A3, hajmi 2 bosma taboq.